

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
FARMONI

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING AYRIM HUJJATLARIGA
RAQAMLI IQTISODIYOT VA ELEKTRON HUKUMATNI RIVOJLANTIRISHGA
QARATILGAN O‘ZGARTIRISH VA QO‘SHIMCHALAR KIRITISH, SHUNINGDEK,
BA‘ZILARINI O‘Z KUCHINI YO‘QOTGAN DEB HISOBLASH TO‘G‘RISIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagi “2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-357-son **qaroriga** muvofiq, shuningdek mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot va elektron hukumat rivojlanishini jadallashtirish maqsadida:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga **1-ilovaga** muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlari **2-ilovaga** muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2022-yil 22-avgust,
PF-194-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagi PF-194-son **Farmoniga**
1-ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va
qo‘shimchalar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 4-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-4702-son Farmonining **3-bandida**:

a) **uchinchi xatboshi** “organlarining rahbarlari” so‘zlaridan keyin “va ularning raqamlashtirish bo‘yicha o‘rinbosarlari (Chief Digital Officer)” so‘zlari bilan to‘ldirilsin;

b) **to‘rtinchi xatboshidagi** “rahbarlarining” so‘zi “rahbarlari va ularning raqamlashtirish bo‘yicha o‘rinbosarlari (Chief Digital Officer)ning” so‘zlari bilan almashtirilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevraldagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5349-son **Farmonida**:

a) 3-bandning **to‘rtinchi va beshinchi xatboshilari** quyidagi mazmundagi xatboshi bilan almashtirilsin:

“barcha vazirlik va idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish uchun mas‘ul tarkibiy bo‘linma rahbarlari (bo‘linma mavjud bo‘lmaganda mas‘ul xodimlari) tegishligi bo‘yicha Vazirlik va Vazirlikning hududiy boshqarmasi bilan kelishilgan holda lavozimga tayinlanadilar”;

b) 7-bandning **“g” kichik bandi** “har oylik ustama miqdori” so‘zlaridan keyin “davlat budjetidan, davlat budjetidan ajratilmagan bo‘lsa, ushbu tashkilotlarning budjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan” so‘zlari bilan to‘ldirilsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-avgustdagi “Litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6044-son Farmonining 13-band **ikkinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Litsenziya” axborot tizimi operatori etib Adliya vazirligi belgilansin”.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6079-son Farmonida:

a) 3-band quyidagi mazmundagi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi taklifiga asosan “Elektron hukumat” tizimining ma’lumotlarni qayta ishlash markaziga joylashtiriladigan davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining axborot tizimlari va resurslari ro‘yxatini tasdiqlash va ushbu ro‘yxat asosida ularning faoliyatini tizimli ravishda monitoring qilib borish”;

b) 12-band quyidagi mazmundagi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga ko‘ra 2022-yil 1-sentabrdan boshlab davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining buyurtmalari asosida O‘zbekiston Respublikasi hududida mobil aloqa operatorlari tomonidan abonentlarga ommaviy SMS-xabarlarni bepul tarqatish xizmatlari soliq solish maqsadida iqtisodiy jihatdan o‘zini oqlaydigan xarajatlar deb e’tirof etiladi”.

v) 16-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“16. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq:

“Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ko‘zda tutilgan loyihalarni o‘z vaqtida va keng ko‘lamda amalga oshirilishini ta’minlaganligi, shuningdek, axborot texnologiyalari va elektron xizmatlarni joriy etishni reyting baholash natijalariga ko‘ra vazirlik va idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining rahbarlari va ularning raqamlashtirish bo‘yicha o‘rinbosarlariga har oyda ularning oylik maoshiga 30 foiz miqdorida ustama to‘lanadi;

vazirlik va idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari (keyingi o‘rinlarda — davlat organlari va tashkilotlari) har yili raqamlashtirish bo‘yicha o‘z faoliyati samaradorligi ko‘rsatkichlarini Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi bilan kelishgan holda shakllantiradi;

har chorakda raqamlashtirish bo‘yicha davlat organlari va tashkilotlari faoliyati samaradorligi ko‘rsatkichlariga erishilganligi, shuningdek, axborot texnologiyalari va elektron xizmatlarni joriy etishni reyting baholash natijalari yuzasidan Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan beriladigan xulosa rahbarlar va ularning raqamlashtirish bo‘yicha o‘rinbosarlariga har oyda ularning oylik maoshiga mazkur bandda ko‘zda tutilgan ustamani to‘lash uchun asos bo‘ladi”;

g) 6-ilovaning 39-pozitsiyasi “Muddati” ustunidagi “2022-yil avgust” so‘zlari “2024-yil mart” so‘zlari bilan almashtirilsin;

d) 10-ilovaning 40-pozitsiyasi “Muddati” ustunidagi “2022-yil avgust” so‘zlari “2024-yil mart” so‘zlari bilan almashtirilsin;

e) 11-ilovaning 39-pozitsiyasi “Muddati” ustunidagi “2022-yil avgust” so‘zlari “2023-yil dekabr” so‘zlari bilan almashtirilsin;

j) 13-ilovaning 49-pozitsiyasi “Muddati” ustunidagi “2022-yil avgust” so‘zlari “2023-yil dekabr” so‘zlari bilan almashtirilsin;

z) 15-ilovaning 9-pozitsiyasi “Muddati” ustunidagi “2022-yil sentyabr” so‘zlari “2023-yil dekabr” so‘zlari bilan almashtirilsin;

i) 17-ilovada:

39-pozitsiya quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“

39.	Yerlarni masofadan turib zondlash, kosmik yo‘ldoshlar orqali aniqlangan suratlarini qabul qilish, qayta ishlash bo‘yicha virtual stansiya	1. Xalqaro tajribani o‘rganish. 2. Yuqori tajriba va kosmik yo‘ldoshlarga ega yirik kompaniyalar bilan muzokaralar o‘tkazish, eng yaxshi takliflarni tanlash yo‘li	2022-yil dekabr 2023-yil may	Davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar doirasida va budjetdan tashqari mablag‘lar,	“O‘zbekkosmos” agentligi (Sh. Kadirov), Axborot texnologiyalari vazirligi (K. Yuldashev)
-----	-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	---------------------------------	-------------------------------------------------------------------------------------	---------------------------------------------------------------------------------------------------

faoliyatini tashkil etish.	bilan to'g'ridan to'g'ri shartnoma imzolash. 3. Virtual stansiya faoliyatini "O'zbekkosmos" agentligi tizimida tashkil etish. 4. Virtual stansiya faoliyatini yo'lga qo'yish.	2023-yil oktyabr 2023-yil dekabr	qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar
----------------------------	-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	-----------------------------------------	---------------------------------------------

40-pozitsiya quyidagi tahrirda bayon etilsin:

40. Yerga oid huquqbuzarliklarning monitoringini yuritish bo'yicha "E-YER NAZORAT" avtomatlashtirilgan axborot tizimini takomillashtirish.	1. Xalqaro tajribani o'rganish. 2. Kosmik suratlarni qayta ishlash orqali o'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalari va ulardagi noqonuniy qurilmalarni aniqlash modulini yaratish. 3. Kosmik suratlarni geoaxborot dasturida qayta ishlash natijasida ma'lum yer maydonidagi o'zgarishlarni qayd etish.	2021-yil mart 2023-yil yanvar 2023-yil aprel	Davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar o'irasida va budjetdan tashqari mablag'lar, qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar	Kadastr agentligi (F. Pulatov), "O'zbekkosmos" agentligi (Sh. Kadirov)
--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	--------------------------------------------------------	---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------	------------------------------------------------------------------------

k) 22-ilovaning matni quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha muvofiqlashtirish komissiyasi

TARKIBI

1. A.N. Aripov — O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri, *komissiya raisi*
2. *Lavozim bo‘yicha* — O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining maslahatchisi, *komissiya raisining o‘rinbosari*
3. Sh.X. Shermatov — axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri, *komissiya raisining o‘rinbosari*
4. T.A. Ishmetov — moliya vaziri
5. R.K. Davletov — adliya vaziri
6. A.V. Shin — maktabgacha ta’lim vaziri
7. B.O. Saidov — xalq ta’limi vaziri
8. A.X. Toshqulov — oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri
9. B.A. Musayev — sog‘liqni saqlash vaziri
10. *Lavozim bo‘yicha* — energetika vaziri
11. *Lavozim bo‘yicha* — qishloq xo‘jaligi vaziri
12. Sh.R. Xamrayev — suv xo‘jaligi vaziri

13. N.B. Xusanov — bandlik va mehnat munosabatlari vaziri
14. B.I. Zakirov — qurilish vaziri
15. I.Y. Abduraxmonov — innovatsion rivojlanish vaziri
16. I.R. Maxkamov — transport vaziri
17. Sh.D. Kudbiyev — Davlat soliq qo‘mitasi raisi
18. A.Y. Mavlonov — Davlat bojxona qo‘mitasi raisi
19. I.I. Norqulov — iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirining birinchi o‘rinbosari
20. M.B. Nurmuratov — Markaziy bank boshqaruvi raisi
21. O.A. Pekos — axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirining birinchi o‘rinbosari
22. A.J. Ortiqov — Davlat aktivlarini boshqarish agentligi direktori
23. A.A. Abdullayev — Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo‘yicha davlat inspeksiyasi boshlig‘i v.b.
24. A.D. Xadjayev — O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi raisi
25. F.J. Pulatov — Kadastr agentligi direktori
26. Sh.M. Kadirov — Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Kosmik tadqiqotlar va texnologiyalar agentligi direktori
27. A.X. Muxitdinov — Elektron hukumat loyihalarini boshqarish markazi direktori
28. Sh.R. Rajabbayev — Vazirlar Mahkamasining IT-texnologiyalar, telekommunikatsiyalar va innovatsion faoliyatni rivojlantirish masalalari departamenti boshlig‘i o‘rinbosari, *komissiya kotibi*

Izoh. Komissiya a‘zolari boshqa ishga o‘tganda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli vazifalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi”.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-avgustdagi “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida loyiha boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3245-son **qarorida**:

a) **4-band**:

quyidagi mazmundagi uchinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasida rezidentlik talablarini istisno qilgan holda harbiylashtirilgan tuzilmalarning ehtiyojlari uchun apparat-dasturiy komplekslarni, avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini, dasturiy mahsulotlar va muhandislik infratuzilmalarini hamda ushbu maqsadlar uchun asbob-uskunalar, butlovchi qismlar, uzellar, texnologik hujjatlar va dasturiy ta‘minotlarni joriy etishga, shu jumladan, yetkazib berishga”;

uchinchi xatboshi to‘rtinchi xatboshi deb hisoblansin;

b) **5-band** quyidagi mazmundagi ikkinchi — to‘rtinchi xatboshilar bilan to‘ldirilsin:

“Harbiylashtirilgan tuzilmalarga:

apparat-dasturiy komplekslar, avtomatlashtirilgan axborot tizimlari, dasturiy mahsulotlar va muhandislik infratuzilmalari loyihalarini amalga oshirish doirasida asbob-uskunalar, butlovchi qismlar, uzellar, texnologik hujjatlar va dasturiy ta‘minotni yetkazib berish uchun Yagona integrator bilan tuzilgan shartnomalar bo‘yicha 100 foiz oldindan to‘lovni amalga oshirish;

tender (tanlov) savdolari o‘tkazmasdan loyiha-texnik hujjatlarni tayyorlash, apparat-dasturiy komplekslarni, avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini, dasturiy mahsulotlar va muhandislik infratuzilmalarini ishlab chiqish hamda ushbu maqsadlar uchun asbob-uskunalar, butlovchi qismlar, uzellar, texnologik hujjatlar va dasturiy ta‘minotlarni yetkazib berish bo‘yicha Yagona integrator bilan shartnomalar tuzish huquqi berilsin”;

v) 13-bandning **ikkinchi xatboshisidagi** “Markaz” soʻzi “Oʻzbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining “Xavfsiz shahar” jamoat tartibiga koʻmaklashish markazi” davlat muassasasining” soʻzlari bilan almashtirilsin.

6. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 16-oktabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasida tez tibbiy yordam xizmatini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-3973-son qarorining **3-bandida**:

a) **ikkinchi xatboshi** chiqarib tashlansin;

b) **uchinchi — oʻn uchinchi xatboshilar** tegishincha ikkinchi — oʻn ikkinchi xatboshilar deb hisoblansin.

7. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-noyabrdagi “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-4024-son **qarorida**:

a) 2-bandning **toʻrtinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Oʻzbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining “Xavfsiz shahar” jamoat tartibiga koʻmaklashish markazi” davlat muassasasi (keyingi oʻrinlarda — “Xavfsiz shahar” markazi) tashkil etilsin”;

b) **4-band** quyidagi mazmundagi beshinchi va oltinchi xatboshilar bilan toʻldirilsin:

“Xavfsiz shahar” markazi jamoat xavfsizligini taʼminlash va ichki tartibni saqlash sohasiga raqamli texnologiyalarni joriy etishda “Elektron hukumat” tizimini davlat organlari va boshqa tashkilotlarning axborot tizimlari bilan integratsiya qilish boʻyicha Yagona integrator hisoblanadi.

“Xavfsiz shahar” markazi Oʻzbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining Axborot xavfsizligi va jamoat tartibini taʼminlashga koʻmaklashish markazining “Xavfsiz shahar” yagona integratsiyalangan tizimini yaratish loyihasini amalga oshirish bilan bogʻliq huquq va majburiyatlari boʻyicha huquqiy vorisi hisoblanadi”;

v) **5-band** quyidagi mazmundagi “v” kichik band bilan toʻldirilsin:

“v) “Xavfsiz shahar” markazining asosiy vazifalari etib belgilansin:

Oʻzbekiston Respublikasida “Xavfsiz shahar” yagona integratsiyalangan tizimini yaratish va undan foydalanishni nazorat qilish sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

jamoat xavfsizligini taʼminlash va ichki tartibni saqlash sohasiga raqamli texnologiyalarni joriy etish va ularning “Elektron hukumat” tizimi bilan integratsiyasini amalga oshirish;

jamoat xavfsizligini taʼminlash va ichki tartibni saqlash sohasida joriy etilayotgan raqamli texnologiyalar boʻyicha yagona texnologik yondashuvni amalga oshirishda yagona talablar, meʼyorlar va mezonlarni belgilash;

davlat organlari va tashkilotlari, shuningdek, xoʻjalik yurituvchi subyektlarga jamoat xavfsizligini taʼminlash va ichki tartibni saqlash sohasida raqamli texnologiyalar joriy etishda koʻmaklashish;

jamoat xavfsizligi va huquq tartibotni taʼminlash sohasida davlat organlari va boshqa tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan loyihalarni kelishish va xulosalar berish”;

g) **7-band** quyidagi mazmundagi “g” kichik band bilan toʻldirilsin:

“g) jamoat xavfsizligini taʼminlash va ichki tartibni saqlash sohasida:

raqamli texnologiyalarni joriy etish, taʼlim muassasalariga kirish test sinovlari jarayonini oshkora va shaffof oʻtkazish, shuningdek, “112” Yagona dispetcherlik xizmatini tashkil etish Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan mahalliy budjet hisobidan moliyalashtiriladi;

davlat ahamiyatiga ega tadbirlarda va obyektlarda, shuningdek, davlat organlari va tashkilotlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish Ichki ishlar vazirligi tomonidan muvofiqlashtiriladi;

raqamli texnologiyalarni joriy etish boʻyicha yagona texnologik yondashuvni amalga oshirishda yagona talablar, meʼyorlar va mezonlarni belgilash va ularni “Elektron hukumat” tizimi bilan integratsiyalashga koʻmaklashish Yagona integrator tomonidan amalga oshiriladi”.

8. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-dekabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasining 2019-yilgi asosiy makroiqtisodiy koʻrsatkichlari prognozi va Davlat budjeti

parametrlari hamda 2020-2021-yillarga budget mo'ljallari to'g'risida"gi PQ-4086-son qaroriga 18-ilo-
ilovaning rus tilidagi **matni** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“NORMATIVI

**raspredeleniya plati za ispolzovaniye abonentskogo nomera, uplachivayemoy yuridicheskimi
litsami, okazivayuuimi uslugi mobilnoy svyazi (sotovimi kompaniyami)**

№	Naimenovaniye poluchatelya sredstv ot plati	v protsentsax ot ostavsheysya chasti summi plati*
1.	Spetsialniy raschetniy schet Fonda razvitiya informatsionno-kommunikatsionnix texnologiy dlya finansirovaniya mejvedomstvennix proyektov elektronno- pravitelstva i tsifrovoy ekonomiki	35
2.	Fond nauchno-innovatsionnogo razvitiya pri Tashkentskom universitete informatsionnix texnologiy imeni Muxammada al-Xorezmi	1
3.	Fond razvitiya informatsionno-bibliotexnix uchrejeniy pri Natsionalnoy biblioteke Uzbekistana imeni Alishera Navoi — informatsionno-resursnom tsentre	2
4.	Fond razvitiya informatsionno-kommunikatsionnix texnologiy pri Ministerstve po razvitiyu informatsionnix texnologiy i kommunikatsiy Respubliki Uzbekistan (s tselevim ispolzovaniyem dlya realizatsii investitsionnix proyektov i programm informatizatsii i razvitiya telekommunikatsionnix setey)	ostatochnaya summa

**protsenti nachislyayutsya ot ostavsheysya chasti plati summi posle napravleniya sredstv na spetsialniy raschetniy schet Fonda razvitiya informatsionno-kommunikatsionnix texnologiy dlya finansirovaniya mejvedomstvennix proyektov elektronno-
pravitelstva i tsifrovoy ekonomiki”.*

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-yanvardagi “Toshkent shahrida Amiti Universitetini tashkil etish to'g'risida”gi PQ-4097-son qarorida:

a) 4-bandning “e” kichik bandidagi “kunduzgi, sirtqi va kechki” so'zlari “kunduzgi, sirtqi, kechki va masofaviy” so'zlari bilan almashtirilsin;

b) quyidagi mazmundagi 10¹-band bilan to'ldirilsin:

“10¹. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Labzak ko'chasi, 70-uy manzilida joylashgan bino va inshootlarni qurish, rekonstruksiya qilish ishlari yakuniga yetkazilgandan so'ng ushbu bino va inshootlarni hamda Universitet faoliyatini tashkil etish uchun xarid qilingan moddiy-texnik resurslarni belgilangan tartibda Universitetga bepul foydalanish shartnomasi asosida taqdim etsin”.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 18-maydagi “Raqamli iqtisodiyot va “Elektron hukumat” tizimi infratuzilmalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4321-son qarori 3-bandi “b” kichik bandining **to'rtinchi xatboshisidagi** “resurslarining” so'zlari “resurslarini ishlab chiqish, takomillashtirish hamda ularning” so'zlari bilan almashtirilsin.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-maydagi “Elektron hukumat” tizimi doirasida axborot-kommunikasiya texnologiyalari sohasidagi loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish sifatini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4328-son **qarorida**:

a) 3-bandning **ikkinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Elektron hukumat loyihalarini boshqarish markazi” davlat muassasasining (keyingi o'rinlarda — Markaz) faoliyati sohasi davlat va xo'jalik boshqaruvi organlariga, ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan barcha loyihalarga nisbatan tatbiq etiladi. Bunda boshqa loyihalar tashabbuskorlari (buyurtmachilar) shartnoma asosida texnik topshiriq yoki tender hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish uchun mustaqil ravishda Markazga “Elektron hukumatning axborot tizimlari va resurslari yagona reyestri” axborot tizimi orqali murojaat qilishlari mumkin”;

b) ilovaning 28-bandi **birinchi xatboshisidagi** “ekspertizadan” so‘zi “shartnoma asosida ekspertizadan” so‘zlari bilan almashtirilsin.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4699-son **qarorida**:

a) **9-band** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“9. Elektron hukumat va raqamli iqtisodiyotning idoralararo loyihalarini moliyalashtirish bo‘yicha quyidagi hisob raqamlar ochilsin:

a) Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasida (keyingi o‘rinda — Jamg‘arma) daromad manbalari mobil aloqa xizmatlarini ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyalari) tomonidan abonent raqamidan foydalanganlik uchun to‘lanadigan to‘lov summasining taqsimlanguniga qadar bo‘lgan 35 foizidan shakllantiriladigan maxsus hisob raqam;

b) “Elektron hukumat loyihalarini boshqarish markazi” davlat muassasasining Moliya vazirligi G‘aznachiligida ochiladigan daromad manbalari quyidagilardan iborat bo‘lgan maxsus hisob raqami:

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali davlat xizmatlarini ko‘rsatganlik uchun to‘langan davlat bojlari, yig‘imlar va barcha turdagi to‘lovlarning 11,25 foizi;

Yagona billing tizimi orqali davlat xizmatlarini ko‘rsatganlik uchun to‘langan davlat bojlari va boshqa to‘lovlardan tushadigan mablag‘larning 0,5 foizi;


qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa daromadlar.


Belgilansinki, abonent raqamlaridan foydalanganlik uchun to‘lov, mablag‘larning tegishli qismi Jamg‘armaning maxsus hisob raqamiga o‘tkazilgandan so‘ng, boshqa oluvchilar orasida mablag‘larning qolgan qismidan kelib chiqib, o‘rnatilgan tartibda taqsimlanadi va qonun hujjatlarida belgilangan maqsadlarga yo‘naltiriladi”;

b) 1-ilovaning **matni** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining

TASHKILY TUZILMASI







v) 2-ilovaning **matni** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi markaziy apparatining

TUZILMASI



Vazirning raqamli iqtisodiyot va elektron hukumat masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari	Vazirning telekommunikatsiya infratuzilmasi masalalari bo'yicha o'rinbosari	Vazirning investitsiyalar va moliya masalalari bo'yicha o'rinbosari	Vazirning raqamli ta'limni rivojlantirish bo'yicha o'rinbosari
Elektron hukumat tizimini rivojlantirish departamenti 13	Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish departamenti 13	Telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish departamenti 16	Iqtisodiyot departamenti 9
Elektron davlat xizmatlarini rivojlantirish bo'limi 3	Raqamli industriyani rivojlantirish va IT-rezidentlarini qo'llab-quvvatlash bo'limi 4	Telekommunikatsiya tarmoqlarini istiqbolli rivojlantirish bo'limi 5	Iqtisodiy tahlil bo'limi 4
Idoralararo hamkorlik va raqamli identifikatsiyani rivojlantirish bo'limi 3	Elektron tijoratni rivojlantirish bo'limi 3	Multiservis tarmoqlari bo'limi 4	Budjetni rejalashtirish va ijrosini nazorat qilish bo'limi 2
Raqamli loyihalar va bulutli xizmatlarni amalga oshirish bo'limi 3	Iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish bo'limi 3	Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye bo'limi 3	Statistika faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi 2
Davlat organlari loyihalarining	Dasturiy mahsulotlarni rivojlantirish bo'limi 2	Mobil aloqa bo'limi 3	Investitsiyalar va tashqi iqtisodiy aloqalar boshqarmasi 5
	Sun'iy intellekt texnologiyalarini		Raqamli ta'limni rivojlantirish departamenti 9
			Ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limi 5
			Kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash bo'limi 3
			Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish bo'limi 3




**Markaziy apparat boshqaruv xodimlarining cheklangan umumiy soni — 142 nafar. Yordamchi xodimlar soni amaldagi me'yoriy hujjatlar asosida belgilanadi*”;

g) 3-ilovaning **matni** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hududiy boshqarmalarining

NAMUNAVIY TUZILMASI



direksiyasi” mas’uliyati cheklangan
jamiyatining viloyat filiali*

**filial va bo‘linmalar tashkil etilgan hududlarda*

Hududiy boshqarmalar xodimlarining cheklangan umumiy soni — 92 nafar:

Toshkent shahrida — 5 nafar;

Andijon, Sirdaryo, Navoiy va Xorazm viloyatlarida — 6 nafardan;

Qolgan hududlarda — 7 nafardan”.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 23-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish hamda vinochilikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-4787-son qarori 10-bandining **ikkinchi xatboshisidagi** “hamda Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan teng ulushlarda” so‘zlari “mablag‘lari hisobidan” so‘zlari bilan almashtirilsin.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-maydagi “Osiyo taraqqiyot banki va Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki ishtirokida “O‘zbekiston Respublikasida koronavirus COVID-19 infeksiyasiga qarshi shoshilinch choralarini ko‘rish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5129-son **qarorida**:

a) 3-bandning **to‘rtinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“1 000 ta tez tibbiy yordam maxsus avtotransport vositalarini xarid qilish uchun yo‘naltirilgan mablag‘lar Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan O‘zbekiston Respublikasi respublika budjetiga qaytariladi”;

b) 4-ilova izohining **beshinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“1000 ta tez tibbiy yordam maxsus avtotransport vositalarini xarid qilish bilan bog‘liq xarajatlar, shuningdek, xizmat ko‘rsatuvchi agent xizmatlari Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplanadi”.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi “Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyatini tashkil etish hamda yoshlarning tadbirkorlikka oid tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5088-son qarorining **6-bandi** quyidagi mazmundagi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida IT-ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish, dasturiy mahsulotlar ishlab chiqish hamda eksportga yo‘naltirish bo‘yicha startap-loyihalarni qo‘llab-quvvatlash uchun tanlov asosida 1 milliard so‘mgacha bo‘lgan grantlar ajratish”.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini tasdiqlash hamda investitsiya loyihalarini boshqarishning yangi yondashuv va mexanizmlarini joriy etish to‘g‘risida”gi PQ-72-son qaroriga **7-ilovaning** 42-pozitsiyasida:

a) “TIA ishlab chiqish muddati” ustunidagi “2022-yil sentyabr” so‘zlari “2022-yil dekabr” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) “Tender savdolarini o‘tkazish muddati” ustunidagi “2022-yil dekabr” so‘zlari “2023-yil dekabr” so‘zlari bilan almashtirilsin.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-apreldagi “Intellectual mulk sohasini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-221-son qaroriga **2-ilovaning** 19-pozitsiyasida:

a) “Amalga oshirish shakli” ustunidagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezident qarori loyihasi” so‘zlari “Axborot-tahliliy ma’lumotnoma” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) “Amalga oshirish muddati” ustunidagi “2022-yil sentyabr” so‘zlari “2023-yil mart” so‘zlari bilan almashtirilsin.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-martdagi “Toshkent viloyatida axborot texnologiyalari va dasturiy mahsulotlarga ixtisoslashgan “Astropolis” massivini qurish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-184-son qarori **11-bandi**:

a) **ikkinchi** va **to‘rtinchi xatboshilaridagi** “Astrum” IT-akademiyasining bir yillik o‘quv kurslarida” so‘zlari “Astrum” IT-akademiyasining o‘quv kurslarida” so‘zlari bilan almashtirilsin;

b) to'rtinchi xatboshidagi "iqtidorli va ijtimoiy himoyaga muhtoj o'quvchilarga" so'zlari "iqtidorli yoki ijtimoiy himoyaga muhtoj o'quvchilarga" so'zlari bilan almashtirilsin.

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 18-maydagi "Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlashda ilmiy salohiyat hamda amaliy faoliyat uyg'unligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-246-son qaroriga ilovaning 7-pozitsiyasi "Ijro muddati" ustunidagi "2022-yil iyul" so'zlari "2022-yil dekabr" so'zlari bilan almashtirilsin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgustdagi PF-194-son Farmoniga
2-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining o'z kuchini yo'qotgan deb e'tirof etilayotgan ayrim qarorlari

RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-avgustdagi "Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida loyiha boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3245-son qarorining 6 va 9-bandlari, qarorga 1-ilovaning 12 va 14-pozitsiyalari hamda 2-ilova.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-avgustdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha maxsus rejimni joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5234-son qaroriga ilovaning 5-bandi.

(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.08.2022-y., 06/22/194/0766-son)